

**JADIDCHILIK HARAKATIGA QADAR TURKISTON  
MUSTAMLAKASIDAGI TA’LIM TIZIMINING ILMIY-MA’NAVIY,  
IJTIMOIY HOLATI**

**Amonov Ulug‘murod Sultonovich**  
*BuxDUPI f.f.f.d(PhD), dotsent.*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada Chor Rossiyasi mustamlakasi va undan oldingi ilm-fan, ta’lim-tarbiya sohasining holati haqida ozgina mulohaza yuritildi. Shunoq ham chin ma’nodagi taraqqiyotga xizmat qilmayotgan ta’lim tizimini rus mustamlakachilari tomonidan yana-da izdan chiqarishi yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** jadid, Turkiston, maktab, madrasa, rus-tuzem, ta’lim, tarbiya, otinoyi, masjid, savod, Chor Rossiyasi, musulmon, XIX asr, mustamlakachilik, o‘quvchi, bola, hafiyak, zer-u zabar, murakkabot, duoyi salom, mutaqqaoat, alifbo, harf, bo‘g‘in.*

Chor Rossiyasi Pyotir I davridan boshlab, O`rta Osiyoga ko`zini tikdi. Hatto 1717-yilda Aleksandr Bekovich Cherkasskiy boshchiligida Xivaga harbiy ekspeditsiya ham yuborgan edi [1]. Afsuski, ashtarxoniyalar inqirozidan so`ng yagona bitta davlat bo`lmish Markaziy Osiyo – Turkiston uchta xonlikka bo`linib ketdi. Ustiga-ustak ta`limga e`tiborsizlik natijasida iqtisodiyotda, ilmiy kashfiyotlarda va ularning tadbqiqida, ijtimoiy-siyosiy hayotda chin manoda inqirozga uchradi. To`g`ri, ba`zi xonlar va davlat amaldorlari bu kabi holatlarning oqibati yomon bo`lishini anglab ayrim ishlarni amalga oshirishga harakat qilishdi. Afsuski, bular yetarli emas edi. Natija shu bo`ldiki, Rus bosqinchilari qisqa muddatda uch xonlikni mag`lub etib, Qo`qon xonligini tugatib, qolgan ikki xonlikni hududini qisqartirib, iqtisodiy, siyosiy jihatdan o`ziga qaram qilib Turkiston general gubernatorligin tashkil etdi.

Chor Rossiyasi Turkistonni bosib olgach, “Тукестаское медемости” hamda “Turkiston viloyati” gazetalarini tashkil etib siyosiy-ma’naviy targ`ibotini boshlab yuborishdi. Bu bilan cheklanmasdan Rus-tuzem maktablarini ochib, mahalliy xalq bolalarni bepul o`qitishni yo`lga qo`ydi. Maqsad yosh avlodni rus shavinizmi asosida tarbiyalab, bu zaminga mustahkam o`rnashib ilish edi. Turkiston xalqlarini ruslashtirish orqali tilimizni, dinimizni va milliy qadriyatlarimizni ham istilo qilish edi. Rus mustamlakachilari bunday siyosatni missionerlik yo`li bilan emas, balki islom dinini qoralash, uning ta`sir doirasini cheklash orqali oshirishga harakat qildilar [2. 39-40].

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiston siyosiy, iqtisodiy hayotida bo`lganidek, moddiy va ma’naviy madaniyat, jumladan islom dini va uning tayanchi bo`lgan musulmon maktablari ustidan ham Chor Rossiyasining mustamlakachilik tartiblari o`rnatila boshlandi. Bu davrda bosqinchilar bizning, ya`ni o`zbek millatining taslim bo`lishimiz, ularga qaram holda quldek yashashimiz uchun tish-tirnoqlarigacha kurashdilar. Ular bizni tilimiz, dinimiz, urf-odatlarimiz, milliy

qadriyatlarimiz, qadimiy obidalarimizni yo‘q qilish orqali manqurt singari o‘zligimizdan ayro holda hayot kechirib, bor-budimizdan ayirib, butun hokimiyatni, hattoki yer yuzini egallamoqchi bo‘lishdi. Bosqinchilar mustamlaka xalq ustida hukmronlik abadiy turishi uchun avvalo ta‘lim-tarbiyani yo‘q qilish orqaligina erisha olish mumkinligini juda yaxshi anglab yetganlar. Sababi bosib olingan xalq qanchalik savodsiz, ilmsiz, ma‘naviyatsiz bo‘lsa, ularni istagan yo‘riqda olib borish mumkin. Bular tarix zarvaraqlarida achhiq haqiqatlar ila ayanchli tarzda hikoya qilingan.

Turkistonning birinchi general gubernatori, general-adyutant K.P.fon Kaufman islom dini va musulmon maktablariga nisbatan “e‘tibor bermaslik” siyosatini tanladi, mahalliy maktablar hayotiga aralshmaslikni ma‘qul topdi [3.89]. Uning fikricha: “bu maktablar ko‘hna musulmonchilik qoldiqlari sifatida hayotga yaramaydi, shuningdek keyincha taraqqiy etishiga zaruriy unsurlarning yetishmasligi sababli o‘z-o‘zidan o‘lishi” zarur edi [4.11-12.]. Kaufman musulmon xalqining kuch-qudratiga ishonqiramay islom madaniyati o‘z poyoniga yetib bo‘lgani, endi qayta uyg‘onmasligi va taraqqiy etmasligiga amin bo‘lgan edi.

1873-yili Kaufman podsho hukumatiga “Turkiston o‘lkasida xalq ta‘limi va o‘quv ishlarinitashkil qilish rejasi”ni taqdim etdi. “Reja”da musulmon maktablariga qarama-qarshi ravishda, mahalliy bolalar uchun ruscha maktablar ochish zarurligini ta‘kidlab o‘tadi. Uning fikricha faqat shunday maktablarga tub aholini ruslashib ketishiga xizmat qilishi mumkin edi [5. 63.]. Shu tariqa Turkiston o‘lkasidagi barcha rus maktablari bilan birgalikda musulmon maktablarida ham bosqinchilar o‘z nazoratlarini o‘rnata boshladilar. Ta‘lim sohasida tubdan burilishlar sodir bo‘la boshlandi.

Kaufman rus mustamlakachilariga nisbatan, dushmanlik kayfiyatidagi musulmon maktablarini inqirozini tezlatish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirdi:

1. Diniy-ma‘muriy lavozim-raislkni bekor qildi [6. 288.], buning natijasida ko‘pchilik ota-onalar domlaga sarflanadigan ortiqcha xarajatdan qutildik, deb bolalarni maktabga yubormay qo‘ydilar.

2. Mutavalliboshi lavozimi bekor qilindi, bu bilan vaqflar ustidan nazorat to‘xtadi; mutavallilar vaqf daromadini talon-taroj qilishi kuchaydi.

3. A‘lamlk bekor qilinib, mudarrislar ustidan nazorat yo‘qoldi, ko‘p madrasa mudarrislari o‘z xizmat vazifalariga sovuqqonlik bilan qaray boshladilar.

4. Madrasani tugatib kattaroq lavozimga ko‘tarilish imkoniyatlari qisqardi. Deyarli barcha ma‘muriy lavozimlarni rus ofiserlari egallay boshladilar. Madrasani tamomlab kelganlar faqat masjidida imomlik, maktabda domlalik hamda shariat

qonunlarini himoya qiluvchi qozilikni egallashi mumkin bo‘ldi, shu bilan birga eng quyi ma‘muriy mansablarga olinadigan bo‘ldi [7. 90].

Bu davrda o‘qish va yozish birgalikda olib borilmagan. Birinchi navbatda o‘qish keyin esa yozuv o‘rgatilgan. O‘quvchilarga “Quron xati” ya’ni alif, be, te, se ni keyin boshqa harflarni quruq yodlash vazifa qilib berilgan. Shu tariqa o‘quvchiga ta’lim berishda davom etishgan. O‘quvchining savodini nazorat qilish uchun to‘g‘ri kelgan kitobdan o‘qitib, agar u tutilmay ravon o‘qib bersa savodi chiqqan, yoki tutilib o‘qiy, bo‘g‘inlay olmasa savodi chiqmagan deya xulosa qilishgan. Savod o‘rgatishda hijo (bo‘g‘in) usulidan foydalanishgan. Bu usul “Hijjai qadimiy” deb nomlanib uch bosqishni o‘z ichiga oladi. Harf nomlarini yod olish, bo‘g‘in hosil qilish, bo‘g‘inlarni birlashtirish kabilar. Ba’zida mudarrislar o‘quvchilarga Qur’ondan ham o‘qib berishgan va ular ham ketidan takrorlashgan. Har bir maktabda ta’lim turlicha olib borilgan. Chunki harflar o‘rgatib bo‘lingach bo‘g‘inlab o‘qish (zer-u zabar) boshqacha usulda ya’ni, ba’zi maktablarda domlalar harflarga o‘zlari tushunadigan tilda nom qo‘yib o‘rgatishgan. Undan keyin esa, bo‘g‘inlarni bir-biriga ulab so‘z hosil qilish ya’ni (abjad) usuli va hisoblashning ko‘paytirish amali o‘qitilib “Haftiyak”ka o‘tilgan. “Haftiyak” o‘rgatish bosqichida asosan “Qur’on”ning eng oson, el orasida mashhur bo‘lgan “Yosin”, “Fotiha”, “Taborak” kabi suralari domlalar tomonidan ta’lim berilgan. Bu bosqich juda uzoq vaqt talab qilganligi uchun vaqt o‘tib, “Haftiyak” boshdan oxir o‘qitilmay, “Furqon”ni qo‘lga olishgan. Boshqa kitoblardan bolalar ilm olayotgan paytlarda ham kun ora ilohiy kitobdan o‘qishgan.

O‘quvchilar qora rangli siyoh orqali yozishgan. Bu siyohni tayyorlaydigan kishilar Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qo‘qon shaharlarida mashhur shaxslar shu orqali tirikchilik qilishgan. Kimga siyohdon va siyoh kerak bo‘lsa bozordagi sahhor yoki attorlardan xarid qilishgan. Maktablarda yozuv peshindan keyin o‘rgatilgan. Yozuvni o‘rganmagan bola maktabda qolib domla yozib bergan yozuvlarni mashq qilgan, hali boshlamagan o‘quvchilar esa uylariga qaytishgan. Agar bola xatni yaxshi yozib tugatsa unga yangi ta’lim berilgan. Ta’lim bosqichi quyidagicha bo‘lgan: 1. Mufradot — ba’zi harflarni alifbo tartibida qog‘ozga husnixat bilan ko‘chirish. 2. Murakkabot — bo‘g‘inlab o‘qish, ya’ni, so‘zdagi tovushlarni bir-biriga qo‘shish. 3. Muqattaot — kitoblardagi she’r, g‘azal, ruboiylarni chiroyli tarzda ko‘chirib yozish, shundan so‘ng domla o‘quvchilarga bir qancha so‘zlarni mustaqil tarzda yozish vazifasini bergan. Eng so‘nggida bolalar “Duoyi salom” ya’ni salom xati yozishgan. Agar mana shu xat chiroyli va bexato yozilgan bo‘lsa, demak, bolaning savodi chiqqan hisoblangan. Savodni yanada takomillashtirish uchun shoir va ulamolarning butun boshli kitobni husnixat bilan ko‘chirib yozishgan. Maktablar va maktabxonalar asosan masjid yonida qurilgan.

Bu davrlarda faqat o‘g‘il bolalar maktabga borib savod chiqarishgan. Ammo qizlar maktabga bormaganlar. Ular faqat otinbibi xonadoniga borib ilm olishgan. Sababi qizlar o‘g‘il bolalardek maktabga borib bilim olishlari majburiy bo‘lmagan. Otinoyi maktablari soni deyarli ko‘p bo‘lmagan. Oz sonli qizlar savodli bo‘lishgan, xolos.

Maktab bilan otinoyi maktabi bir-biridan deyarli farq qilmagan. Bazi farqlari quyidagicha: maktab asosan mansabdor shaxslar hamda hukumat tepasidagilar tomonidan ochilsa, otinoyi ayol va qizlarni o‘zi jalb qilib o‘qitgan; maktab hududiy joylashuv jihatidan madrasa va masjidlar oldida qurilgan, otinoyi maktabni o‘z xonadonida tashkil qilgan; maktabda faqat bilim olish bilan shug‘ullanilgan bo‘lsa, otinoyi maktabida uy yumushlariga ham jalb qilingan. Otinoyilar ilm o‘rgatishda o‘g‘il bolalar maktabi va masjid imomlaridan yetakchi o‘rinda turgan, chunki ular faqat bitta sohada faoliyat yuritishgan. Ba‘zi ota-onalar o‘g‘illarini ilk marotaba otinoyilarga berishgan. Otinoyi maktablari arab tilida yozilgan kitoblardan tashqari forscha va turkcha kitoblardan ham ta’lim berilgan.

Sadriddin Ayniy eski maktablar haqida shunday fikrlarni bildirgan: “Maktab binosi janubga orqa o‘girib tushgan bo‘lib odatda, ikki eshikli kichkina bir uydin iborat edi. Uning eshiklaridan biri bir tabaqali bo‘lib qishda yopiq qo‘yilar edi. Ikkinchi eshigi esa daricha bo‘lib, bo‘yi chorak kam bir gaz, eni yarim gaz kelar edi” [8. 4.]

Ona zamin Turkistonda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ta’lim sohasida bir qancha evrilishlar tufayli biz musulmon xalqi arosatda qoldik. Sababi, rus bosqinchilari o‘zlarining rus-tuzem maktablarini tashkil etib, eski maktablarni “zamondan orqada qolgan“ deb qoralashga harakat qilishdi. Ularning maqsadi bizning o‘zligimizni yo‘qotib, rus madaniyati, tili, dini, urf-odatlarini targ‘ib qilish orqali hokimiyatda abadiy turish, mustamlaka xalqni qulga aylantirish bo‘lgan. Ammo bu harakatlarga taraqqiyparvar ma’rifatchilarimiz o‘zlarining tahsinga sazovor jasoratlari bilan butun xalqni, millatni uyg‘otishga urinishar edi. Bu davrda maktab va madrasalarda savod chiqarish uzoq davom etgan. Ta’lim faqat quruq yodlatish bilan cheklangan. O‘quvchilar maktabdor tomonidan ayovsizlarcha kaltaklangan. Mana shunday qiyinchiliklarga barham berish uchun buyuk ma’naviyat sohiblari bir qancha dasturlar ishlab chiqishgan va buni amalda ham qo‘llashgan.

Biz mustamlakga qadar va undan keying davrdagi maktab ishi haqida ozgina fikr yuritdik xolos. Shuni unutmasligimiz kerakki, har bir davlarning, millatning kelajagi ta’limga bog‘liq.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Bekovich//Harbiy ensiklopediya/V.F.Novitskiy v.b. – 1911 – 1915.
2. Yunusova X. Chor Rossiyasida islom diniga munosabatning ba’zi masalalari. “O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar”, 1994, 6-son, 39-40-betlar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi.2282-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 91-yig‘ma jild, 89-varaq.
4. N. Ostroumov. Turkiston o‘lkasi tubjoy aholisi maorifiga qarashlardagi beqarorlik. “Islom ikki o‘t orasida” kitobida. T., “Movarounnahr”, 1992, 12-16-betlar.
5. Бендриков К. Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане. М., 1960, 63-бет.
6. O‘zMDA, 2282-jam. 1-ro‘yxat, 41-ish, 90-varaq.
7. S. Ayniy, Eski maktab. Toshkent—1955, 4-bet.
8. Amonov U. S. Turkiston o‘lkasida usuli jadid maktablarining shakllanish jarayoni, muammolari va taraqqiyoti //Pedagogs jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 412-414.
9. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in Elbek's interpretation //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 403-407.
10. Amonov U. S. Abdurauf Fitrat is one of the earliest researchers of uzbek folklore. “Academicia” An International Multidisciplinary Research Journal, India. June 2020. 669-673p. DOI:10.5958/2249-7137.2020.
11. Amonov U.S. Jadidchilik harakati va “Buxoroyi sharif” ro‘znomasi. “Ta’lim va innovatsiyalar” jurnali №5. 2022-may. 62-68-betlar.  
<http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1183/448>